
Rishton tumanida g'alla o'rim-yig'imi boshlandi

Rishton tumani g'allakorlari joriy yil hosili uchun 5 ming 950 gektar maydonga boshoqli don ekib, parvarishladi. Mirishkorlar fermerlar mavsumning har bir kunidan unumli foydalangan holda mo'l hosil yetishtirdi. Tumanda joriy yil 248 ta fermer xo'jaliklari tomonidan, 5 ming 950 gektar g'alla maydonlaridan belgilangan rejadagi 16 ming 288 tonna (shundan 1 ming 690 tonna urug'lik g'alla)dan ortiq sifatli don ishlab chiqarish ko'zda tutilgan. Mavsumni o'z vaqtida yakunlash maqsadida 24 ta otryad tashkil qilingan. - Yaxshi niyatlar bilan boshlangan joriy yilgi mavsumda tumanning Markaziy Farg'ona xududidagi Yoshlik, Istiqlol, S.Rajabov, M.Keldiev nomli MMTPlar hududlarida birinchilardan bo'lib g'alla o'rim-yig'imiga kirishildi, - deydi tuman qishloq xo'jaligi bo'limi boshlig'i Maxmudov Murodjon. Bu yilgi yangi tizim asosida 1 iyundan boshlab g'allani davlat tomonidan sotib olish va sotishda bozor narxlariga o'tilmoqda. Davlat resurslari uchun sotib olinadigan 1 tonna bug'doy narxi o'tgan yilgi 1,5 million so'mdan bu yil 3 million so'mga oshirildi. Shu narxda xarid qilingan bug'doy oyma-oy birjaga chiqariladi, agar narxlar oshsa, fermerlarga o'rtadagi ijobiy farq ham to'lab beriladi. Bu esa fermerlarimiz va g'allachilik klasterlar uchun juda katta imkoniyatdir.

2022-06-06 19:20:42